

IMOM ISMOIL AL-BUXORIY (810-870)

*Xorazm viloyati Imom Faxriddin ar Roziy islom bilim yurti mudarrisi
Shermatov Muhammadyusuf G'ulomjon o'g'li*

Annotatsiya: Imom Ismoil al-buxoriyning tavallud topgan yillari, oqigan madrasalari, oilalari, yozgan asarlari va vafoti haqida.

Kalit soʻzlar: Xartang qishlogʻi, kunyalar hadis, hadisshunoslik, toif, "al-adab al-mufrab", mushoyihlar.

Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810.21.7, Buxoro — 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlogʻi) — islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi.

Buxoriy 16 yoshga yetguncha, oʻz yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yoʻl oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, oʻzi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat koʻrsatayotgan olimlarning ilmiy yigʻinida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda boʻlib, ulardan hadislar boʻyicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini toʻplash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilardi.

Otasi Ismoil oʻz davrining yetuk muhaddislaridan, Molik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri boʻlib, tijorat ishlari bilan shugʻullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5—6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini oʻrganishga va yodlashga kirishadi.

Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda koʻplab olimlardan taʼlim oladi. Nishopurlik al-Hakimning yozishicha, ustozlarining soni toʻqsontalar atrofida boʻlgan. Oʻz navbatida al-Buxoriy ham koʻpgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Isʼhoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Bir necha tarixchilarning taʼkidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. Soʻng Basra, Kufa va Bagʻdodga safar qiladi. Shom va Misrga oʻtadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur,

Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi.

Alloma abadiy qo‘nim topgan Samarqand viloyati, Payariq tumani, Chelak shaharchasi, Hartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (qarang Buxoriy yodgorlik majmui). Buxoriyning boy ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur‘oni karim va Buxoriyning „al-Jome as-sahih“i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an‘analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg‘arma o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-adabiy „Imom al-Buxoriy saboqlari“ jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma‘naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog‘lom idrok etilishiga yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: „Al-jome' as-sahih“, „Al-adab al-mufrad“, „At-tarix al-kabir“, „At-tarix as-sag‘ir“, „At-tarix al-avsat“, „At-tafsir al-kabir“, „Birrul volidayn“, „Asmo as-sahoba“, „Kunyalar“ va boshqalar. Ular orasidagi „Al-jome' as-sahih“ asari islom olamida Qur‘ondan keyingi eng muhim manba sifatida e‘zozlanuvchi manba hisoblanadi.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa‘yu ko‘chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob al-favoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jome' al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af‘ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiati“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayr-ehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba‘zilari bizgacha yetib kelmagan, ba‘zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma‘lumotlar bor.

1974 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashabbusi bilan respublikamizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200 yillik yubileyi nishonlangan edi. Uning shoh asarlari hisoblanmish „Al-jome' as-

sahih” va “Al-adab al-mufrad” kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkentdagi diniy oliy ma’hadning Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o‘n ikki asr muqaddam ilmfan yo‘lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-e’tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog‘ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko‘rkam qadamjoldardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavalludi munosabati bilan uning maqbarasi qayta qurildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, Tug‘ilgan yili 2015
2. Uvatov U., Imom alBuxoriy, T., 2017
3. Madaminov S, Imom Buxoriy ta’rifi, T., 2014
4. Imom alBuxoriy — muhaddislar sultoni [nashrga tayyorlovchilar Usmonhoji Temurxon o‘g‘li, Baxtiyor Nabixon ugli], T., 2019
5. Dushan Fayziy Zarafshoniy, Imom alBuxoriy, T.,
6. Babaxanov Sh.Z., Velikiye muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami, T.,
7. Ma’naviyat yulduzlari [2nashri], T., Ubaydulla Uvatov.